



Azizaxon MULLABAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

E-mail: mullaboyevaazizaxon99@gmail.com

Yulduz ARTIQOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

O'zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi R.Abdusatarov taqrizi asosida

URUSH JARAYONLARINI YORITISHDA AXLOQIY MEZONLAR

Аннотация

Ushbu maqola urush jarayonlarini yoritishda axloqiy mezonlarning qanday qo'llanilishi, tarixi va muhimligi haqida tahlil qiladi. Urushlar insoniyat tarixida alohida o'rin tutadi va ko'plab odamlarning hayotini o'zgartirgan, millatlar va xalqlarni tanlab o'tgan hodisalar sifatida qolgan. Biroq, har bir urushda axloqiy nuqtai nazar, inson huquqlari, adolat va gumanitar yondashuvlar, bir tarafdin, harbiy strategiya, siyosiy manfaatlar va geosiyosiy ko'rsatkichlar bilan mutanosib ravishda qiyoslanadi. Maqola tarixiy misollar, manbalar, faktlar va iqtiboslar orqali urushlarning axloqiy asosi va bu mezonlarning yoritilishidagi o'zgarishlarni o'rganadi. O'zbek olimlarining asarlari orqali, ayniqsa, mintaqaviy urushlar va ularning axloqiy mezonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Urush, axloq, tarixiy misollar, gumanitar qonunlar, urush jinoyatlari, inson huquqlari, harbiy etik, axloqiy mezonlar.

ЭТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ПРИ ОСВЕЩЕНИИ ВОЕННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация

В данной статье анализируется использование, история и значение этических критериев при освещении военных процессов. Войны занимают особое место в истории человечества и остаются событиями, изменившими жизнь многих людей и избранных наций и народов. Однако в каждой войне моральные соображения, права человека, справедливость и гуманитарные подходы сопоставляются с военной стратегией, политическими интересами и геополитическими соображениями, с одной стороны. На основе исторических примеров, источников, фактов и цитат в статье рассматриваются моральные основы войн и изменения в освещении этих критериев. Через труды узбекских ученых анализируются особенности региональных войн и их моральные критерии.

Ключевые слова: Война, мораль, исторические примеры, гуманитарные законы, военные преступления, права человека, военная этика, моральные критерии.

ETHICAL CRITERIA IN ILLUMINATING WAR PROCESSES

Annotation

This article analyzes the use, history and importance of ethical criteria in the coverage of war processes. Wars occupy a special place in the history of mankind and remain events that have changed the lives of many people and chosen nations and peoples. However, in every war, moral considerations, human rights, justice, and humanitarian approaches are weighed against military strategy, political interests, and geopolitical considerations on the one hand. Through historical examples, sources, facts and quotations, the article examines the moral basis of wars and the changes in the coverage of these criteria. Through the works of Uzbek scientists, especially regional wars and their moral criteria are analyzed.

Key words: War, morality, historical examples, humanitarian laws, war crimes, human rights, military ethics, moral criteria.

Kirish. Urushlar insoniyat tarixida eng murakkab va og'riqli voqealar hisoblanadi. Harbiy operatsiyalar, qo'llanilgan qurollar va ularga olib keladigan halokatlar faqat siyosiy yoki iqtisodiy oqibatlarini emas, balki axloqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Urush jarayonlaridagi axloqiy mezonlar har doim katta e'tiborga sazovor, chunki urushning olib borilishi va uning natijalari insoniyatning etik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham urushlarning axloqiy jihatini tahlil qilish faqat harbiy tarixni o'rganish bilan cheklanmaydi, balki inson huquqlari, gumanitar qadriyatlarining asoslarini va adolatni ta'minlashga ham oiddir [1].

O'zbek olimlari urushlarni tahlil qilish va ularni yoritishda o'zgacha metodologiyalar ishlab chiqqan. O'zbekistondagi bir qancha olimlar urushlarni nafaqat harbiy, balki axloqiy, siyosiy va gumanitar nuqtai nazardan ham yoritishgan. Masalan, Abdulaziz Jumanov 2003-yillarda "Urushlar va milliy xavfsizlik" asarida urushlarning inson hayotidagi tarixiy, siyosiy va axloqiy tomonlarini ochib bergan[14]. Rustamxon Jumaev esa 2015-yilda "Urush va tinchlik: Insoniyatning jahon tarixi" nomli asarida urushlarning insoniyatning axloqiy qadriyatlari bilan qanday ajralmas darjada bog'langanini ko'rsatib bergan[15]. Sodikxon Rasulov 2019-yilda "Zamonaviy urushlarning axloqiy o'lchovlari" degan asarni yozib, urushlardagi inson huquqlarining buzilishi va bu jarayonlarning axloqiy oqibatlarini atroflicha tushuntirib bergan[13]. Bu kabi olimlar

urushlarning tarixiy sabablari va ularning axloqiy oqibatlarini yangicha nigohlar bilan ochib berishgan.

Tarixiy misollar va urushlarni axloqiy nuqtai nazaridan yoritish. Antik davr va o'rta asrlardagi urushlar.

Antik davr va o'rta asrlarda urushlar ko'pincha imperatorlar, hukmdorlar yoki diniy tashkilotlar o'rtasida sodir bo'lgan. Shu davrlarda urushlar "maqbul" yoki "muqaddas" deb tasniflangan – ya'ni shaxsiy sharaf, dunyoviy yoki diniy huquqlarni himoya qilish maqsadida olib borilgan. Masalan, Rim imperiyasining urushlari yoki Xochli urushlar (1096-1270) diniy va siyosiy asosda amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning axloqiy jihatdan ham baholanishi mumkin edi[3]. Biroq, shu davrda urushlarning axloqiy mezonlari kamroq e'tiborga olinardi, chunki urushlar ko'pincha "adolatli" deb hisoblanar edi va har qanday vositalar haq deb qaralardi.

O'zbek olimlari tarixiy urushlarni tahlil qilishda o'ziga xos usullar ishlab chiqqanlar. Abdulla Qodiriy[11] va Cholpon kabi yozuvchilar o'z asarlarida urushlarning axloqiy va madaniy jihatlarini chuqur yoritishgan. Ularning ishlari urushlarning xalq madaniyati va axloqiy qadriyatlariga qanday ta'sir ko'rsatganligini chuqur tahlil qiladi.

Zamonaviy urushlar va axloqiy standartlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, ayniqsa Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlarida urushning axloqiy asoslari yangi bosqichga ko'tarildi. Gumanitar qonunlar, inson huquqlari va urush jinoyatlari haqidagi

masalalar 1864-yilda Shveysariyada tashkil topgan Xalqaro Qizil Xoch Jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan urush qonunlarining asoslariga asoslangan. Keyinchalik, 1949-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Genf konvensiyasi urush jarayonlarini yanada qattiq axloqiy meyorlar bilan belgiladi[5].

O'zbek olimlarining fikricha, urushning axloqiy jihatlarini butun dunyo miqyosida tahlil qilinishiga qaramay, har bir millatning axloqiy nuqtai nazariga o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Toshpulatov Bahrom va Akbar Shokirov o'z asarlarida Sovet Ittifoqi davridagi urushlarning axloqiy baholanishi, inson huquqlari va xalqaro huquqning tanqidiy tahlilini o'z ichiga olganlar.

Urush jinoyatlari va axloqiy baholash. Urush jinoyatlari axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan alohida o'rin tutadi. Bu jinoyatlar, bir tomondan, urush jarayonlarida inson huquqlarining buzilishini, ikkinchi tomondan esa xalqaro huquqlarga noto'g'ri munosabatni anglatadi. Birinchi Jahon Urushi va Ikkinchi Jahon Urushi davomida bu jinoyatlar yanada keskinlashdi[6]. Masalan, Ikkinchi Jahon Urushi davomida fashistlar tomonidan yahudiylar va boshqa etnik guruhlariga qarshi amalga oshirilgan "Holokost" huquqiy va axloqiy jihatdan katta tanqidga uchradi va keyingi avlodlar uchun model bo'ldi.

Tahlillar. Shu davrgacha insoniyat tarixidagi urushlarni turli tuman jurnalistlar yoritgan. Ularning barchasi o'z

qarashlaridan kelib chiqan holda tahlil qilgan. Masalan ulardan biri mashhur yozuvchi Ernest Hemingweydir. Uning asl kasbi jurnalist edi. U ikkinchi jahon urushi va Ispaniyadagi fuqarolar urushida qatnashgan. Har bir urushda qatnashar ekan bu insoniyat tarixiga qanchalik ayanchli ta'sir ko'rsatayotganini his qilgan. Bu yaxshiliklarni odamzot odob axloqidan mutlaqo tashqariga chiqib ketganini o'z asarlarida aks ettirgan. Bunday asarlardan eng mashhuri "Alvido, qurol" asaridir. Jurnalist urush haqida shunday deydi: "Urushning hech qanday sevgisi yoki merosi bo'lmagan kishilar boshqaradi. Urush – bu insonlarning hayotini inqirozga olib keladigan, ularni har doim achchiq yo'ldan olib boradigan bir noxushlikdir"[8].

Urushni yoritgan jurnalistlar haqida so'z ketar ekan nafaqat muxbirlar balki fotojurnalistlar haqida ham aytib o'tish joiz. Bu jurnalistikada bu yo'nalishning ham o'rni sezilarli darajada. Ular bizga bu daxshatli voqeani real rasmlar orqali ochib beradilar. Shunday jurnalistlardan biri Robert Capadir. U taniqli fotojurnalist bo'lib II jaxon urushi, Ispaniya fuqarolar urushi hamda anchagina jangovar holatlarni o'z fotosuratlarini orqali yoritgan. Uning fotosuratlarini urushdagi eng qo'rqinchli tomonlarini hamda urush o'z nihoyasiga yetganidan so'ng nima oqibatlarga olib kelishini ko'rsata olgan.



1-rasm. Saint Laurent-sur-Mer, Kalvados, Fransiya. Sana: 1944 yil iyun. Nemis harbiy asirlari D-Day desantlarida halok bo'lgan AQSH qo'shinlarini dafn etishyapti. D kunida kamida 2501 amerikalik halok bo'ldi[16].



2-rasm. Muhojirlar, Hayfa, Isroil, 1949 yil[12].

Bu suratlar orqali inson urushning oqibatlarini yanada yaxshiroq anglaydi va hech qachon unutilmas bo'lib xotirasiga muxirlanadi. Jurnalistikaning bu yo'nalishi insoniyatning axloqiy tamoyillaridan mutlaqo chiqib ketganini ochib bera oladi.

Urushni yoritishga jazm qila olgan jurnalistlardan yana biri bu John Reyeddir. U Amerika jurnalisti va sotsiologidir. Uning oktabr inqilobining ichida turib yorita olgan kam sonli jurnalistlardan biridir. Uning eng salmoqli asarlaridan biri bu "Dunyoni larzaga keltirgan o'n kun" (That shook the word) deb nomlanadi. Uning bu asarida urush davrida yozgan barcha maqolalari joy olgan. U o'zining maqolalaridan birida shunday deydi: "Oktabr inqilobi dunyoning yuzini o'zgartiradigan voqea bo'ldi, bu, shubhasiz urushning so'nggi zaharli mevasidir"[9].

Urushlar tarixida ikkinchi jahon urushidanda daxshatliroq bo'lmagan. Bu urush yer yuzidagi har bir insonga bir tegib o'tdi. Uning ayanchli ta'sirlari bilan haligacha kurash olib boramiz. Aynan shu urushning shafqatsizligi haqida bizga Martha Gelhorn yoritib bergan. U ikkinchi jahon urushining qoq markazida o'z faoliyatini olib borgan va urush fojialarini o'zgacha yoritgan jurnalistlardan biri hisoblanadi. Uning maqolalari va asarlari insoniylikning yo'qolishiga, axloqning yo'q bo'lishiga

doir o'ylarga to'lgan edi. U bir maqolasida urush haqida shunday deydi: "Mening ko'rganim shundaki, urushning oxirgi natijasi insoniylikka qarshi bo'lib chiqadi, u faqat kuchliroq yolg'onlar yaratadi", "Urush — bu nafaqat yirik shaharlarning vayron bo'lishi, balki inson qalbining o'chmas izlarini qoldirgan jarohatlardir"[10].

Bu jurnalistlar tarixdagi eng muhim voqea bo'lgan urushlarni yoritgan. Unga turli tarafdin nigoq qaratgan. Ularning har biri urushning dahshatli, fojiali va qo'rqinchli tomonlari haqida o'z noyob fikrlarini yozgan. Ularning maqolalari va asarlari urushning jamiyatga qanchalik zararli ta'sir ko'rsatishi, odob axloq normalarini buzib yuborishi, siyosiy va ijtimoiy hayotda insonlarning qanchalik darajada tubanlashib ketishini yoritib bergan.

O'zbek olimlari urush jinoyatlarini o'z tarixiy kontekstida chuqur tahlil qilganlar. Zohidov Ismoil va Alimov Furqat o'z ilmiy ishlarida urush jinoyatlarini, ayniqsa Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ta'sirini yoritishga e'tibor qaratganlar. Ularning asarlari urush jinoyatlarining milliy tarixga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi zamon urushlarida axloqiy masalalar. Zamonaviy urushlar, ayniqsa tinch aholiga qarshi amalga oshiriladigan hujumlar, sun'iy yo'llar bilan boshqariladigan operatsiyalar va turli harbiy harakatlar ko'plab axloqiy savollarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, 1990-yillarda Yugoslaviya urushidagi voqealar, 2000-yillarda Iroq urushi va boshqa zamonaviy urushlar axloqiy nuqtai nazaridan katta tanqidga sabab bo'ldi.

O'zbek olimlarining fikricha, zamonaviy urushlar ko'proq siyosiy va axloqiy jihatlar bilan bog'liq. Tashkentov Vali va Juraev Timur urushlarning zamonaviy tahlilida, ayniqsa xalqaro aloqalar va axloqiy yondashuvlarni qanday uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatganlar.

Urushning axloqiy mezonlarini yoritishdagi qiyinchiliklar. Harbiy etika va gumanitar nuqtai nazar. Urush jarayonlarini axloqiy mezonlar asosida yoritish ko'pincha murakkab bo'lishi mumkin. Harbiy strategiyalar va siyosiy manfaatlar ko'pincha axloqiy mezonlar bilan ziddiyatga keladi. Masalan, ba'zi hollarda g'alaba qozonish uchun axloqiy qadriyatlarini chetlab o'tish talab etilishi mumkin. Shu bilan birga,

"harbiy etika" va "gumanitar nuqtai nazar" o'rtasidagi farqlar sezilarli darajada ortadi.

Axloqiy mezonlarni zamonaviy urushlarga qo'llash. Zamonaviy urushlarda, ayniqsa global miqyosda, axloqiy meyorlarni qo'llash ko'plab siyosiy va iqtisodiy faktorlar bilan bog'liq. Urushlar ko'pincha bir nechta davlatlar o'rtasida sodir bo'ladi va ularning siyosiy aloqalari va strategiyalari axloqiy qarorlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari va global mediada urushlar to'g'risidagi axloqiy qarorlar yanada murakkablashmoqda.

Xulosa. Urush jarayonlarini axloqiy mezonlar bilan yoritish tarixiy nuqtai nazardan o'zgargan bo'lsa-da, doimiy ravishda muhim masala bo'lib qolmoqda. Tarix davomida urushlar qanchalik ma'qullangan bo'lsa-da, zamonaviy davrda bu jarayonlarning axloqiy jihatlari, inson huquqlari, gumanitar qonunlar va xalqaro meyorlar nuqtai nazaridan tahlil qilish zaruriyati ortmoqda. Urushlarda qo'llaniladigan axloqiy mezonlar doimo o'zgarib turadi, lekin ular har doim insoniyat uchun muhim va dolzarb masala bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Genf Konvensiyasi 1949. Shveytsariya Xalqaro Qizil Xoch Jamiyati, 1949-yil.
2. Shveytsariya Xalqaro Qizil Xoch Jamiyati 1864-yil.
3. Hokimiyat va Adolat: Jahon Urushlarida Axloqiy Mezonlar. Xalqaro Xotira va O'rganish Markazi, 2020-yil.
4. Jahon Urushlari va Urush Jinoyatlari. Milliy Universiteti, 2020-yil.
5. Urush Jinoyatlari va Inson Huquqlari: Zamonaviy Muammolar. Harvard Yuridik Fakulteti, 2019-yil.
6. O'zbek Tarixida Urushlar va Axloqiy Baholash. Toshkent Davlat Universiteti, 2021-yil.
7. Zamonaviy Urushlar va Axloqiy Tahlil. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2022-yil.
8. Hemingway Ernest, Alvido. Qurol. 2019-yil.
9. That Shook the World, Amerika, 2001-yil.
10. Gellhorn Martha, The Face of War, 1959-yil.
11. Qodiriy Abdulla, O'tgan kunlar, Yangi asr avlodi nashriyoti, 2019-yil
12. <https://collections.artsmia.org/art/5515/arriving-immigrants-robert-cap>
13. Rasulov S. "Zamonaviy urushlarning axloqiy o'lchovlari". Toshkent, 2019-yil.
14. Jumanov A. "Urushlar va milliy xavfsizlik". Toshkent, 2003-yil.
15. Jumaev R. "Urush va tinchlik: Insoniyatning jahon tarixi". Toshkent, 2015-yil.
16. <https://www.aarp.org/politics-society/history/info-2019/d-day-robert-cap-images.html>